

OILADAGI MUHITNING IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK TALQINI

Bozorova Ro'zigul

TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oiladagi psixik muhit va unda kechayotgan jarayonlar haqida so'z boradi. Bola tarbiyasida oilaning o'rni juda ham muhimligi aks etadi. Mazkur psixologik maqolada mashhur olimlarning fikrlari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, ijtimoiy muhit, jihat, agressiya, tarbiya, depressiya, tadqiqot.

Аннотация: В данной статье говорится о душевной атмосфере в семье и процессах, происходящих в ней. Роль семьи в воспитании ребенка очень важна. В статье изложены мнения известных ученых.

Ключевые слова: Речь, социальная среда, психологический аспект, агрессия, воспитание, депрессия, исследовании.

Annotation: This article talks about the mental environment in the family and the processes taking place in it. The role of the family in the upbringing of a child is very important. This article also contains the opinions of famous scientists.

Key words: Spoeech, social environment, psychological aspect, aggression, education, depression, research.

Oila bu eng kichik davlat hisoblanadi, undagi har bir a'zolarning o'rni borki, oila tinch bo'lishi uchun har biri mas'uldir. Davlatning tinch-totuv bo'lishida bu oilalarning o'rni judayam muhim hisoblanadi. Bugun oilalarda bo'lib o'tayotgan kelishmovchiliklar o'z-o'zidan jamiyatga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, albatta. Nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan bolalarning kelajagi qanday bo'ladi, ulardan, avvalo, ota-onasiga, yaqinlariga nisbatan mehr-oqibatsiz shavqatsiz xudbin Zero, ulargina bolaning ta'lim-tarbiyada vatan haqidagi ilk tasavvurlarni o'rgatib boradi. O'z asarlarida oiladagi tarbiyaviy munosabatlarni ifodalashga harakat qilgan faylasuflardan biri Abu Nasr Farobiy hisoblanadi. U deyarli, barcha asarlaridagi odob-axloq qarashlari bilan axloq nazariyasini boyitdi. Bunga misol qilib uning "Fozil odamlar shahri" asarini keltirish mumkin. Unda aytib o'tishicha, haqiqiy insonning komilligidagi baxt - bu ularning bir-birlariga bo'lgan mehri-oqibatlarini, o'zaro hukmronlikning yo'qolishi hisoblanadi. Shu bilan birga, oiladagi tinch-totuvlik, undagi samimiy munosabatlar mehr-oqibatlar esa oilaning mustahkamligini ta'minlaydi va baxtga erishish baxtiga olib boradi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tadiki, har bir ota-ona o'z oilasidagi farzandlari uchun yo'l boshlovchi ustoz hisoblanadi. Zero, ulargina bolaning ta'lim-tarbiyada vatan haqidagi ilk tasavvurlarni o'rgatib boradi.

Mutafakkirning har bir tarbiyaga oid qarashlari hozirgi kunda ham ahamiyatga ega hisoblanadi. O'rta asrning buyuk olimlaridan yana biri Abu Rayhon Beruniydir. U o'zining ensiklopediyalari bilan o'z o'rniga ega bo'lgan taniqli arboblardan hisoblanadi. Farobiy tarbiyaning yumshoqligi va qattiqligi haqida gapirib o'tgan bo'lsa, Beruniy ham odob-axloq bilan o'z nazariyasini bog'lab o'tadi va noyob

fikrlar bildiradi. Jumladan: uning "O'tgan avlodlar obidalar", "Geodeziya", "Mineralogiya" asarlarida insonning shaxsi, uning qaysi nomga mansubligi, oiladagi odob-axloq, tarbiya masalalari, aql-idroki, nasl-nasabi, sabr-iroda kabi xususiyatlari ko'rib chiqiladi. O'zining "O'tgan avlod obidalar" asarida quyidagi jumlaning keltirib o'tadi - "Inson bor ekan, avvalo, o'z yaqinlari bilan birlashgan holda faoliyat olib borishi, o'zaro bir-birlarini tushunishi, asrab-avaylashi, o'zi va boshqalarga g'amxo'rlik qilishlari shart" deb aytib o'tadi.

Beruniy haqiqatda takrorlanmas fikrlarini bildirib o'tgan olim hisoblanadi. Insondagi har bir axloq qoidalari, avvalo, uning toza-ozodalikka rioya qilishi bilan belgilanadi deb hisoblaydi. Inson yuz qo'llarini yuvishi, tishlarini yuvishi, tirnoqlarini vaqtida olishlari, sochlarini ham tez-tez yuvib turishi kerak ekanligini alohida uqtirib o'tadi. Negaki, uning fikricha tana tozaligi, albatta, insonning qalbiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bunday tozalikka muhim omil sifatida qaralsa, shunday bir asos bo'ladiki, ya'ni oiladagi er-xotinning ham o'zaro munosabatlarining mustahkamligini ta'minlab beradi deb hisoblaydi. Beruniy insonni hissiyotlarining jilovini boshqaruvchi deb hisoblaydi. Inson bunday o'z salbiy jihatlaridan voz kechgan holda, eng avvalo, oilasiga namuna bo'lishi, jamiyat hayotidagi muhitga o'z ta'sirini ko'rsatishi kerak deb hisoblaydi. Bugun biz oiladagi munosabatlar haqida fikr va mulohaza yuritar ekanmiz oila uchun ko'plab tavsiyalar o'gitlar, shu bilan bir qatorda, undagi muhitni yaxshilash bo'yicha ko'plab tavsiyalar bergan tabib, olim Abu Ali Ibn Sinoning qarashlari bilan ham to'xtalib o'tmasdan ilojimiz yo'q, albatta. Mutafakkirning o'z davrida keltirib o'tgan qarashlari hozirgi kunda ham mos keladi desak xato bo'lmaydi. U oiladagi turli jihatlariga pedagogik va psixologik jihatdan yondashib, har bir nuqtaga alohida e'tibor qaratib o'tadi.

Bolalarni tarbiyalashda oila boshlig'ining o'rni juda katta ekanligini aytib, agar oila boshlig'i keng mulohazali bo'lib, bolaning hatolari uchun jismoniy jazodan ko'ra, saboq bo'luvchi oqibatini o'ylab ko'rishlik jazolar bilan jazolasa oiladagi bolalar keyinroq bu xatoni takrorlamaydi deb hisoblaydi. Mabodo, oila boshlig'ining uquqsiz bo'lib, u salbiy holatlarga mukkasidan ketgan bo'lsa, u holda bu bolalarning tarbiyasiga ta'sir qilmay qolmaydi va bir kun kelib bu bolalar ham o'z ota-onalari kabi bo'lib yetishishlari mumkinligini ta'kidlaydi. Bunday o'quqsiz ota-onalar farzandlarini jazolashda qattiqqo'llik bilan og'ir tan - jarohatlari bilan jazolar ekan, farzandlarida dushmanona va o'ziga ishonmaslik kabi yomon xislatlar ustun bo'lib boraveradi. Shunday ekan, har bir katta yoshdagi inson borki, xatto davlat boshliqlari bo'lsalarda, eng avvalo, ota-ona hisoblanadi. Ibn Sino ota-onalar nafaqat hikmatlar va misollar bilan bolani tarbiyalashlari lozim, balki ularning o'zlari amalda ham buni ko'rsatib o'tishlari kerak deb uqtiradi. Xalqimizda bir dono gap bor: "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Demak, uning zamirida tarbiyaning nazariy va amaliy tomonlari ham naqadar ko'p ma'noga egaligini ko'rishimiz mumkin. Ibn Sino nafaqat bola tarbiyasi bilan, shuningdek, oiladagi er-xotin munosabatlariga ham katta e'tibor bergan. Er-xotinning bir-birlarini tushunishlari, ularning o'z vazifalari haqida ham ko'plab fikrlar keltirib o'tgan.

Oiladagi muhit aslida er-xotinning o'zaro munosabatidagi bir-birini hurmat qilishi, ishonchi asosida qurilishi kerak deb hisoblaydi. Oiladagi bunday muhitning o'zagini esa ayol kishiga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlik belgilab beradi deydi. Agar oilada erkak o'z jufti halolini avaylab, mehr ko'rsatib, uni himoya qilar ekan, bunday oilalar sokinlikda hayot kechiradilar. Xuddi shuningdek, ayol kishi ham erining hurmatini joyiga qo'yib, unga marhamat ko'rsatishi kerak ekanligi to'g'risida

ham yozadi. Oilaning mustahkam bo'lishi ko'pincha moddiy jihatga ham borib taqaladi. Tez-tez tchrab turadigan oilaviy kelishmovchiliklar, undagi sokinlikni buzilishiga olib keladi, buning asosida esa moddiy tomon yotishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun voyaga yetgan farzandlarini biror-bir hunarga jalb qilish tog'risida ham aytib o'tadiki, hunarning inson xayotidagi o'rni haqida fikrlarni berib o'tadi. Barchasi oilaning mustahkam bo'lishiga qaratilgan, agar bolalar voyaga yetgan davrida qandaydir bir hunarni egallasalar ular hayotda qiynalmasliklarini uqtiradi. Yoshlarga hunar o'rgatishning yana bir jihati shundan iboratki, ularning bo'sh vaqtlarini samarali olib borishga qaratilgan: Biror kasb o'rganish, kerakli ishlar bilan shug'ullanish kabilar. Agar yoshlar bunday ishlar bilan shug'ullanar ekan, ular vaqtlarni turli bo'lar-bo'lmas narsalarga sarflab yomon oqibatlarni keltirib chiqarishi, janjallarga aralashib qolishlari mumkin. Yoki bo'lmasa shaxsiy fikriga ega bo'lmasdan boshqalar ta'siriga oson tushib qolishlari mumkin. Shu kabi holatlar nafaqat insonlar, balki oila a'zolariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bunday oilalar esa jamiyat uchun xavfli hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ajdodlarimizning oiladagi o'zaro munosabatlar va odob-xloq tog'risidagi qarashlari nafaqat o'z zamonasi uchun, balki hozirgi murakkab davrda ham juda mos keladi. Yoshlarni tarbiyalashda ajdodlarning o'gitlari ularni yanada ilm egallashga sabab bo'ladi. Tarixsiz kelajak bo'lmagani kabi ajdodlarning yurgan yo'llari va aytib o'tgan ibratlarisiz avlodlar ham rivojlana olmaydi. Xuddi shuningdek, ularning har bir so'zi yoshlar uchun har qadamda asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.E.G'oziyev - Umumiy psixologiya, Toshkent 2002
2. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova - Umumiy psixologiya, Toshkent 2015
3. X.G.Sharafiddinova – Umumiy psixologiya, Toshkent 2022
4. Abdurauf Fitrat – Oila, Toshkent 2000
5. Fazliddin Ikroruddin – Nikoh va oila risolasi, Toshkent 2004
6. The Role of Parental Psychology in the Formation of a Particular Religious Beliefs in A Child. Sh. Xudoyqulova, M Saydaliyeva - Eurasian Scientific Herald, 2023.